



Tohir Malik Asarlarida Inson Xarakterini Ifodalovchi Leksik Birliklarning Ijobiy Va Salbiy Xususiyatlari

Qobilova Nargisa Sulaymonovna
f.f.f.d.,(dotsent) Buxoro davlat universiteti

Rajabova Maktuba Abduxoliqovna
BuxDU, 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Tohir Malikning “Shaytanat”, “Murdalar gairmaydilar” va “Iblis devori” asarlari yuzasidan bo‘lib, badiiy asar tilshunoslik bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, yozuvchining poetik mahorati, asarning leksik xususiyatlari, inson xarakter-xususiyatlari yaxshi ochib berilganligi va ulardan o‘rinli foydalangani, xalq tiliga yaqin, kitobxonning qalbidan joy oladigan sodda va ravon tilda yozilganligi haqida so‘z yuritilgan. Asar ilmiy manbalar asosida yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: badiiy matn, lisoniy tahlil, xarakter, leksik birliklar, frazeologizm, ijobiy va salbiy sifatlar, ma‘nodosh so‘zlar.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z milliy qadriyatlarimiz, boy tariximiz, madaniyatimizga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Lekin shu bilan bir qatorda, zamon bilan hamnafas bo‘lish, rivojlangan davlatlarning darajasiga ko‘tirilish kabi oily maqsadimizni ham unutganimiz yo‘q. Zero, prezidentimiz takidlaganlaridek, “Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir”. Bizning maqsadimiz ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush barpo etmoqdir. Bu yo‘lda, ya‘ni obod vatan bunyodkorlari bo‘lmish yoshlarni ma‘nan yetuk, aqlan barkamol qilib tarbiyalashda avvalo ma‘naviyat va madaniyatning roli benihoya kattadir. Bu bebaxo xazinalarni anglash uchun esa yuksak tafakkur va katta bilim asosidagi tajribalar talab etiladi. Demakki, eng avvalo tariximizni, madaniyatimizni va o‘zligimizni anglamog‘imiz zarur. Aynan mana shu maqsaddan kelib chiqqan holda ushbu ilmiy tadqiqot ishi yuzaga keldi.

Biz “Shaytanat” qissasini badiiy matnning eng yuqori namunasi, deb ta‘kidlashga asoslarimiz yetarli. Chunki mukammal badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida uning tilidagi leksik birliklarni leksikologiya qonun qoidalariga monand ravishda ma‘nodosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, zid ma‘noli so‘zlar, ko‘p ma‘noli so‘zlar, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarda qanday maqsadga yo‘naltirilganligi izohlanadi. Biz “Shaytanat”da eng ko‘p uchraydigan leksik birliklarni shu guruhlar bo‘yicha ajratamiz va asarda o‘ziga xos vazifa bajarganini dalillashga harakat qilamiz.

Ma‘nodosh so‘zlar. Ma‘nodosh so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma‘nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yana-da to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. O‘zbek tili ma‘nodosh so‘zlarga juda boy. Adib tilimizdagi ma‘nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladi, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatib berishga intiladi. Badiiy matndagi ma‘nodosh so‘zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e‘tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma‘nodosh so‘zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng ma‘qbul birini tanlashi bo‘lsa, ikkinchisi



ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.¹

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning uch turi farqlanadi: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Tohir Malik qalamining o'tkirligiga sabab shundaki, u badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydiki, bu so'zlar qissada xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, matnda juda ko'plab salbiy ma'no ottenkasiga ega so'zlar qo'llanib, ularning sinonimik qatori kengaytirilishiga muvaffaq bo'lishga erishgan. Masalan: Bunaqa mayda ishlarni bajaruvchi mayda odamlarimiz yetarli, - Said Qodirov shunday deb ayyorona ko'z qisib qo'ydi. (V kitob, 294-b.); Yur, dedi Kesakpolvon G'ilayga, bir narsa deb qo'y. (III kitob, 142- b.) Misollarda "ko'z qismoq", "bir narsa deb qo'yish" leksik birliklarida erkaklikni ifodalovchi ma'no qirralarini ko'rish mumkin. Birgina "o'ldirish" fe'lining bir qancha salbiy ottenkalari qo'llangan sinonimik qatorni bu asarda uchratishimiz mumkin: "jo'natib yuborish" (jo'nab qolish) –*Sal aynisa, Hosil akasining izidan jo'natvor.*, —*Yangi xo'jayinga tobing bormi yo eskisini orqasidan jiydaxaltangni ko'tarib jo'nab qolasanmi?* (III kitob, 613-b); "gum qilish", yo'qotish, qazo topmoq Dushmanning qo'ldan qazo topmoq ham bir baxt, azizim. (II kitob, 511-b); *asfaldasofinga jo'natish G'ilay Patsanning o'zini asfaldasofilinga jo'natmay tag'in! demoqchi bo'ldi-yu, tilini tiydi.* (III k, 659-b). Quyidagi parchada ham ma'nodosh so'zlarni uchratishimiz mumkin: —*Uning huzuriga turli yumush bilan turli toifa odam kelib turadi. Bular orasida muloyimlari ham, bezbetlari ham, shirinso'zlari ham, to'nkamijozlari ham bo'lardi.* (III kitob, 627-b); —*Saba shahri ayni paytda juda ulug', bahaybat, azamat shahar edi.* (V kitob, 672-b).²

Frazeologik ma'nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, aniq va to'la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. *Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq* kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikirchikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Asardagi misollarga e'tibor beramiz: —*Osonlik bilan jon beradigan axmoq yo'q!* (III kitob, 143-b.); —*Men nima uchun yashadimu, nima maqsadda bu chirkin barglarni to'pladim.* (V kitob, 295-b.). Leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi.³ Masalan: *Xursand –og'zi qulog'ida, g'azablanmoq – jahli chiqmoq, beg'am – dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi* kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi. Masalan, —*Mahmud akamning seyflari buzilib qolganida ochib bergan edi. Qo'li gul usta. - Bunaqa qo'li gullarning xaridorlari serob bo'ladi.* (V kitob, 131-b.); Bu yerga bosh egib kelishga majbur etgan Anvarni so'kdi. (II kitob, 178-b.). Matnda qo'li gul, xaridor hamda bosh egib kabi ma'nodosh so'zlar qo'llanilgan. Biz "*Shaytanat*" qissasida qo'llanilgan leksik birliklarning tahliliga to'xtalar ekanmiz, ularning badiiy asar matnida *lisoniy, kommunikativ hamda estetik vazifalarni* bajarishini alohida ta'kidlaymiz. Adib tomonidan qo'llangan lug'aviy birliklar qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funksiya bajarish kabilar bilan bir qatorda, ular nutqidagi jinsga mansublikni aks ettirishini ham kuzatishimiz mumkin.⁴

Endilikda ushbu asarda qo'llangan ijobiy va salbiy xarakter ifodalovchi leksik birliklar tahliliga e'tiborni qaratamiz.

¹ Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilning nazariy grammatikasi. Morfologiya. - Toshkent, 2001.

² Rasulov R., Narzieva M. Leksikologiyani o'rganish.-Toshkent: O'qituvchi, 1992.-23

³ Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent.: Hilol-nashr, 2017.

⁴ O'zbek tili leksikologiyasi.-Toshkent: Fan, 1981. - 312 b.



Quyida “Shaytanat” asarida qo‘llangan ijobiy va salbiy leksik birliklarni ko‘rib o‘tamiz.

1. «To‘g‘ri, — deb o‘yladi Namozov, — bunga ham **iste‘dod** lozim. Men hatto oddiy yolg‘onni ham eplay olmayman. **Yolg‘ondan qulluq qilsam, yolg‘ondan jilmayib qo‘ysam...** allaqachon akademik bo‘lib ketarmidim... Nasiba «bunchayam **noshudsiz-a**», deb to‘g‘ri aytadi...» (30-bet)
2. Tabibboshi **noshud**, **befahm** ayollardan emas edi. Buni darhol tushunib yetdi. Rangining bo‘zargani, lablarining titrashi **g‘azabdan** emas, **qo‘rquvdan** edi. (8-bet)
3. Asadbek uni **go‘l baliq** fahmlab, **o‘limtik chuvalchangli** qarmoqni tashladi.
Qarmoqqa ilintirdim, deb o‘ylayapti. Asadbek ishning ko‘zini biladi. Lekin Zelixon bekorga **akademik** deyilmaydi — bunisi ham bor. **Shilimshiq** masalasida Asadbekning hisobi xomroq, Zelixonniki aniqroq bo‘ldi. Asadbek Elchinning **o‘tkir zehni** maslahatchisi, **mard** homiysi borligini hisobga olmagan edi. (112-bet)
4. Bola bo‘lib birov bilan mushtlashmabman, birovdan tuzukroq kaltak yemabman. Ana endi, dong‘im chet elga chiqib turganida bir **befarosat** savalasa. (30-bet)
5. «Odobli va mehnatsevarligi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lgani, gunohidan astoydil iztirobda ekani» inobatga olinib, qamoqdan barvaqt bo‘shatilgan. Bu «odobli bola» shundan beri militsiya nazariga tushmagan. Bu «mehnatsevar bola» yigirma yildan beri bir joyda — shahar xo‘jaligida ko‘cha supuruvchi bo‘lib ishlardi. (103-bet)
6. — **Shoqollar** orasida **tulki** bo‘lib yashamoqchimisan? Tulkilarni tulki bo‘lib, shoqollarni shoqol bo‘lib qirmoqchimisan? Sen shunchalar

befahmmisan? Bilib qo‘y: **shoqolu tulkilar** bizdan avval ham bo‘lgan, bizdan keyin ham qoladi. (113-bet)

Yuqorida keltirilgan parchalarni va ularda qo‘llanilgan xarakter ifodalovchi

sifatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, Tohir Malik tomonidan xarakter ifodalovchi leksik birliklarning nechog‘lik mahorat bilan ishlatilganini guvohi bo‘lamiz.

Asar davomida ijobiy sifatlarni ifodalash uchun ulug‘ martabaga oid so‘zlar yoki takallufomuz so‘zlar qo‘llangan bo‘lsa, salbiy xususiyatlarni ko‘rsatish uchun yomon deb bilingan hayvon nomlarida foydalanilgan. Masalan, *akademik - ijobiy, tulki, shoqol - salbiy.*

“Shaytanat” qissasidagi taqdiri bir-biriga o‘xshamagan, qiyofasi-yu fe‘l atvor,

dunyoqarashlari bir biridan tubdan farq qiluvchi obrazlar tarzida tasvirlangan insonlar goh oshkora, goh pinhona o‘zaro kurash olib boradilar.

Sovetlar davrida bu olam adabiyotimizda deyarli tasvir etilmagani uchunmi

qissa “Sharq yulduzi” jurnalida bosilishi bilan kitobxonlar tomonidan talashib o‘qildi. Kitob sifatida qayta-qayta nashr etildi.

Elchin Sibirdagi lagerga ko‘chirilganda, hali «o‘qilon”ning ovozi yetib kelmay turib, shu Zelixonning panohida jon saqlagan edi. O‘zbekistondan kelgan, *bo‘sh-bayov ko‘ringan bu yigitni dastyorga, aniqrog‘i, qulga aylantirmoqchi bo‘lgan zo‘ravon mahbuslar Zelixonning «bu mening zemlyagim” degan gapidan keyin tinchishdi.* «Senam musulmonsan, men ham musulmonman. (47-bet)

Keying o‘rinlarda Tohir Malikning “**Iblis devori**” asarida qo‘llangan xarakterni ifodalovchi leksik birliklar tahlilini keltirib o‘tamiz. Madaniy jihatdan olib qaralganda ikki tilda yozilgan asarlarda qo‘llanilgan fe‘l atvorni bildiruvchi so‘zlar asar muallifi mansub bo‘lgan millatning milli-madaniy qarashlarini, shu xalqqa xos bo‘lgan frazeologik birliklarni qo‘llash orqali xalqning hamda shoirning



milliy dunyo tasvirini o'zida aks ettiradi. Masalan, Iblis devori asaridan keltirilgan quyidagi parchalarga va ularda ishlatilgan leksik biliklarga nazar tashlaylik:

Ha, toychoklar, qayoqqa? - deb so'radi mehribonlik bilan.

-Anavi tog'ning orqasiga borishimiz kerak. Ukamning oyog'iga tikon kirib ketdi.

Eshagingizga mingashib olsa maylimi, o'zi judayam yengil, - dedi To'lqin unga umid ko'zlarini tikib. (Iblis devori 62-bet)

-Salomiga mehribonlik bilan alik olib, "iloyim baxtli bo'lgin, qizim", deb duo qilib qo'yuvchi kennoyisiga qaramaydi. Aka va ukalari hisoblangan Salohiddin, Bahridin, Nuriddindan yuzini teskari buradi. (67-bet)

- Bu gap Ibrohimga ma'qul tushib, bolani quchoqlab oldi.

-Oying to'g'ri aytibdi. Odam degani mehribon bo'lmasa hayvondan farqi qolmaydi. (77-bet)

Yuqorida keltirilgan 3ta parchadan anglashiladiki, mehribonlik sharq millatiga xos bo'lgan asosiy ijobiy xarakterlardan biri hisoblanadi. Asar davomida kishida mehr tuyg'usi ustuvorlik qilishi kerakligi ta'kidlangan holda mehribon, mehribonlik, mehr so'zlar qayta qayta ishlatiladi. Ikki tildagi xarakterni tasvirlashning o'xshashligi sifatida Xolid Husayniy asarida ham, Tohir Malik asarlarida ham salbiy xarakterni ifodalash uchun yomon, ayyor yoki yolg'onchi kishilar hayvonga qiyoslangiligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Siz haqingizda eshituvdim. Ugroda ishlab yurganingizda ham haqiqatparastlik qilar ekansiz. Bu yaxshi fazilat. Ammo bu sohada faqat sizgina adolatli, sizgina haqiqatparast emassiz. Sizdan yoshim kattaroq bo'lgani uchun aytib qo'yay: hamkasblaringizdan sira gumonsiramang. Gumon bilan uzoqqa bora olmaysiz. Biz bir-birimizdan gumonsirasak, bir-birimizga ishonmasak, xalq bizni sariq chaqaga ham olmay qo'yadi. Shusiz ham odamlar bizga uncha ishonmaydi.

(Shaytanat 2-qism 148-bet)

Ushbu parchada kishidagi haqiqatparastlik xalq orasida ishonch qozonish uchun eng zarur xislat ekanligi aytib o'tilgan.

Chuvrindi kutilmagan mehmonni uyga taklif qildi. Hovuz polvon o'jarlik bilan rad etdi. Mezbon qat'iyatlik bilan zo'rlayvergach, noiloj ichkari kirdi. (92-bet)

Yuqorida keltirilgan chuvrindi so'zi kishiga nisbatan kamsitish ma'nosida ishlatilib, undan keyin qo'llangan o'jarlik va qat'iyatlik skabi leksik birliklar kishini harakatga undovchi sifatlar tarzida keltirilgan.

Yigit «Qayoqqa olib borib qo'yay», deb so'rab ham o'tirmadi. Hatto «Baribir o'tirar ekansan, noz qilishing nimasi edi», degan ma'noda qarab ham qo'ymadi. «Bu sodiq laychalarning hammasi kamgap-a?» deb o'yladi. (Elchin.17-bet)

Noz qilish birikmasi ayollarga xos bilan sifatni ifodalab, undan keyin keltrilgan birikmada ijobiy va salbiy xislat yonma yon kelgan. Masalan, sodiq laychalar.

— *Militsiyada endi ish boshlaganimda ustozim bo'lardi, urushda jang qilgan, halol inson edi, — dedi Soliev. — Ammo xayolparastroq edi, bechora. O'sha odam, hademay to'qchilik boshlanib, jinoyat kamayadi, derdi. (36-bet)*

Ushbu parchadan ko'rinib turiptiki asar davomida Kishida biror bir xususiyat butunlay emas, balki kam miqdorda borligini ko'rsatish uchun sifatning qiyosiy darajasidan foydalanilgan, xayolparastroq kabi.

Chuvrindi bosh irg'ab qo'ydi. Asadbek esa Kesakpolvonning qo'pol muomalasidan g'ashi kelib, unga norozi qiyofada boqdi. (130-bet)



Asat o‘qir ekanmiz, unda chuvrindi leksik birligiga juda ham ko‘p marta duch kelamiz, ammo bu kishidagi xarakterni ifodalab kelmaydi, aksincha kishiga nisbatan uning xarakteridan, gap-so‘zi va o‘zini tutishi, xatti-harakatidan kelib chiqqan holda boshqalar tomonidan qo‘yilgan laqabni ifodalaydi.

— *So‘ramayman, gapingizdan qitmirlilikning hidi kelib turibdi.*

— *Qitmirlilik emas. Hali bu taklifim moydek yoqib, menga rahmat, akaxon, ham deysan. (36-bet)*

— *Ana, ko‘rdingmi, darrov qo‘rqasan. Bizda ilm bilan shug‘ullanish erkinligi yo‘q. Bizda **amalparastlik** erkinligi, **dunyoparastlik** erkinligi, haqiqat ko‘ziga cho‘p tiqish erkinligi, **laganbardorlik** erkinligi bor. Bulardan ustozing to‘la foydalanib, maza qilib yashadi. Endi sen shunday yashaysan. So‘ng sening shogirding. Shunday ketaveradi zanjir reaksiyasi bo‘lib. (41-bet)*

Ushbu keltirilgan gapda amalparastlik, dunyoparastlik, laganbardorlik kabi salbiy xarakter ifodalovchi so‘zla go‘yoki bir biriga sinonim sifatida qo‘llanilgan va bir birini to‘ldirgan.

Endilikda shunday ijobiy va salbiy sifat, ot, fe‘llar ifodalangan **MURDALAR GAPIRMAVDILAR** asaridan parchalarni keltirib o‘tamiz.

- *O‘chir, deypman! Menga qara, qaysarliging uchun senga «esh-shak» deb laqab berishgan. Xo‘sh, esh-shakligingcha qolasanmi yo biz aytgan yo‘lga yurasanmi? (8-bet)*
- *Kim nima desa desin, ammo Valijon xojasiga bag‘oyat **sodiq** edi. (21-bet)*
- *Tursunali itoat bilan, huddi qaynonasinikiga birinchi marta kelgan **uyatchan** kuyov kabi o‘tirdi. (5-bet)*
- *Vey, uka, siz bu gaplarni bir gapirdingiz, ikkinchi aytmang. Men siz o‘ylagan **nopoklardan** emasman. Hammani bir xil qarichda o‘lchamang. Men **halol yashab** kelgan odamman. (100-bet)*
- *Kievga «gastrol»ga borganida Abramovich degan **ziqnani** to‘rt kechayu to‘rt kunduz temir quvurga kishanlab, och qoldirib, tepkilaganda ham aytmagan, to‘rt kecha-kunduz najot kutib yashagan. (52-bet)*
- *Kofirning ham **insoflisi**, vijdonlisi bor. **Kofirning** ham o‘ziga yarasha e‘tiqodi bo‘ladi. U **kofir** emas, **ablah** edi. (8-bet)*
- *Xayriyat! Bu kimsasiz orolda bittagina **insofli** tirik odam bor ekan! — dedi u. — Hamma xonalarni birma-bir taqillatib chiqdim. Tirik odam yo‘qmi, bilmayman. (78-bet)*
- *Odamning ko‘ngli **sezgir** bo‘ladi, yomonlikni tez payqaydi. (124-bet)*
- *Tabiatan **sezgir** bo‘lgan Bobomurod ichkari uyda o‘tirsam ham ko‘cha eshigi ochilganini bilardi. (117-bet)*
- *«Senga yalingan — **ahmoq**», degan kim edi? Endi **ahmoqligingni** tan oldingmi?*
- *Seni oshnam deb yurgan odam **ahmoq** bo‘lmay nima bo‘lardi? (117-bet)*

Sodiq, uyatchan, nopok, halol yashamoq, nopok, kofir, ablah, insofli, sezgir, ahmoq, ahmoqlik kabi xarakter ifodalovchi birliklar tahlil qilinar ekan, Tohir Malikning asarlarida so‘z turkumlarini o‘zgartirish orqali nodir san‘at yaratganini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytgancha, Tohir Malik asarlarida kishining ijobiy va salbiy xususiyatlarini, xarakterini ifodalovchi leksik birliklar anchaginani tashkil qiladi va ular asarlarning qiymatini oshirgan asosiy vositalar sifatida sanab o‘tiladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Xamidovna, N. N. (2021). APPROACHES TO LEXICAL CONNOTATIONS, ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 1721-1726.
2. Navruzova, N., & Haydarov, A. (2022). КОННОТАТИВНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ЗВУКОВЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4462
3. Наврузова, Н. Х. (2022). KONNOTATIV MA'NONING BADI'YI ASARLARDA IFODALANISHI: Navruzova Nigina Xamidovna, Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7). <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/view/1490>
4. Khamidovna, N. N. (2022). THE DENOTATION AND CONNOTATION OF A WORD. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 382-388. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1242>
5. Navruzova, N. (2022). ПОДХОДЫ К ЛЕКСИЧЕСКИМ КОННОТАЦИЯМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4356
6. Xamidovna, N. N. (2021). APPROACHES TO LEXICAL CONNOTATIONS, ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 1721-1726.
7. Navruzova Nigina Xamidovna, (2021). APPROACHES TO LEXICAL CONNOTATIONS, ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 1721-1726. <https://saarj.com/wp-content/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULL-PDF/ACADEMICIA-OCTOBER2021/10.258,%20Navruzova%20Nigina%20Xamidovna.pdf>
8. Khamidovna, N. N. (2023). STRUCTURE OF THE CONNOTATION COMPONENTS IN THE ADJECTIVES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 180-185. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/442>
9. Navruzova, N. (2022). ВЫРАЖЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОСТИ В ЕДИНИЦАХ РЕЧИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5752
10. Khamidovna, N. N. (2022). The importance of denotation and connotation. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 119-120.
11. <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/62>
12. Navruzova, N. (2022). ВЫРАЖЕНИЕ КОННОТАТИВНОГО ЗНАЧЕНИЯ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 24(24). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8251
13. Navruzova, N. (2021). APPROACHES TO LEXICAL CONNOTATIONS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 8(8).
14. Askarovich, H. A. . (2022). So'z Ma'nolari Intensivligi. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 13-15. <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/29>.
15. Askarovich, H. A. (2022). Phonostylistic Repetition. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. <https://ijins.umsida.ac.id/index.php/ijins/article/view/618>.



16. Askarovich, H. A. (2023). THE PROBLEM OF THE STUDY OF ANTHROPONYMS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 868-870. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/737>
17. Haydarov, A. A. (2023). RHYME AS A PHONETIC STYLISTIC DEVICE. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 419-422. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/492>
18. Rasulov, Z. (2021). Reduction as the way of the language economy manifestation. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943
19. Akramov, I. (2021). THE SPECIAL SIGNS, PROPERTIES AND CHARACTERISTICS OF THE APHORISMS. CENTER FOR SCIENTIFIC PUBLICATIONS (buxdu.Uz), 5(5). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2386
20. Saidovna, V. F. (2022). The Usage of Pilgrimage Tourism Terms in the English Language. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 1(4), 66–70. Retrieved from <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/170>
21. Ahrorovna, N. N. (2022). STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM. Web of Scientist: International Scientific Research
22. Kobilova Aziza Bakhriddinovna. Some considerations about periphrases // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.11, Issue 2, 30-February 2021. –P. 1637-1640. (Impact Factor (SJIF. 2021) – 7.492). <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=2&article=264>
23. Rakhmatova, M. (2022). Академическая честность и плагиат: проблемы воспитания. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 15(15). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6966
24. Toshnazarovna, E. M. (2022). THE CONCEPT OF THE TRAGIC IN THE WRITINGS OF J. CAROL OATES. *World Bulletin of Social Sciences*, 10, 70-72. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1009>
25. Sanjar Kurbanov Saliyevich “THE INFLUENCE OF L1 (GERMAN) IN LEARNING ENGLISH LANGUAGE.” *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786. Volume-11| Issue-3| 2023. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/622>
26. Rakhmatova, M. (2016). DISCUSSION ON VALUES, CULTURE, AND LANGUAGES. In *International Scientific and Practical Conference World science* (Vol. 2, No. 11, pp. 40-42). ROST. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27198684>
27. Toshnazarovna, E. M. (2022). ALLUSIONS TO HISTORICAL CHARACTERS AND EVENTS IN THE NOVEL BELLEFLEUR BY JOYCE CAROL OATES. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 274-277. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/861>
28. Kobilova Aziza Bakhriddinovna. The use of the medical periphrases of the Uzbek and English languages in journalistic texts // *JournalNX: A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. ISSN (Online): 2581-4230, Vol.7, Issue 6, 30-June 2021. –P. 143–150. (Impact Factor (SJIF. 2021) – 7.22). <https://www.neliti.com/publications/347772/the-use-of-the-medical-periphrases-of-the-uzbek-and-english-languages-in-journal>



29. Ahrorovna, N. N. (2023). ANTRPONIMLAR TILSHUNOS OLIMLAR TADQIQIDA. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 400-405.
30. Mohigul Ramazonovna Saparova. (2023). ABDULLA QODIRIYNING "OTKAN KUNLAR" ROMANIDA PERSONAJLARNING ICHKI NUTQIDAGI BADIY TAHLIL USULLARI. International journal of education, social science & humanities. FARS publishers, 11(2), 778–782. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678492>
31. Djumayeva, N. COMPARATIVE ANALYSIS OF MAGICAL JEWELLERY AND ORNAMENTS IN ENGLISH AND UZBEK FAIRY TALES. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230.VOLUME 7, ISSUE 6, June. -2021,138-142. <https://media.neliti.com/media/publications/347771-comparative-analysis-of-magical-jeweller-8838f05c.pdf>
32. Vakhidova Fotima Saidovna. (2022). Pilgrimage Tour in Tourism. Miasto Przyszłości, 28, 342–345. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/651>
33. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2022). The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin, 6, 65–70. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/799>
34. Vakhidova Fotima Saidovna. (2021). The Functional Essence of Some Pilgrimage Terms in The English Language. Eurasian Research Bulletin, 3, 1–6. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/259>
35. Tursunov, M. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГИПЕРБОЛЕ В РАЗНЫХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ЖАНРАХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7959
36. Makhmudovich, T. M. ., & O`rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 46–49. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
37. Nazarova, N. (2022). ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ . ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 25(25). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8279